

DJAFAROV Bexzod Farxodovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Eron-afg'on filologiyasi kafedrasи

katta o'qituvchisi

behzoddjafarov@inbox.ru

ARIFDJANOV Zokir Tohirovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti kafedrasи

katta o'qituvchisi

zokirarifdjanov@gmail.com

## KIRISH

Ogahiy ijodini o'rganish, uning asarlarini tadqiq qilish, asarlarida qo'llanilgan forsiy o'zlashmalarni lingvistik tahlil qilish kabi masalalar bugungi kunning dolzARB masalalaridan hisoblanadi. Bu masalani yoritish maqsadida Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning "Jome al-voqeoti" va "Gulshani davlat" [1:208] asarlarida kelgan ba'zi forsiy o'zlashmalarni tanlab oldik hamda leksik va semantik hamda genetik jihatdan o'rganib tahlilga tortdir. Ushbu asarlarda Xorazm xonligida XIX asr o'rtalarida bo'lib o'tgan ba'zi tarixiy va ijtimoiy voqealar o'z akasini topgan.

Qadimdan eroniya va turkiy xalqlar yonma-yon yashab o'zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ijtimoiy, harbiy va boshqa sohalarda aloqalar o'rnatganlar va bu aloqalar ta'sirida fors va turkiy tillar rivojlangan. Fors tilidan turkiy tillarga, turkiy tillardan esa fors tiliga turli xil mavzuga oid so'zlar kirib kelgan. Bunday o'zlashmalar ikki xalq tilining lug'at tarkibidan muqim o'rIN ola boshlagan [1:208].

So'z o'zlashtirish murakkab jarayondir. Ma'lum tilga o'zlashayotgan har qanday so'z (termin) yoki til unsurlari yangi til muhitida uzoq muddatli moslashuv jarayonini boshidan o'tkazadi. Chunki so'z o'zlashtirilayotgan til bilan o'zlashtiruvchi tilning tovushlar sistemasi hamda grammatik qurilishi ko'p hollarda bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, o'zlashtirilayotgan so'z yoki termin har doim ham manba tildagi ma'nosi bilan o'zlashtirilavermaydi, o'zlashtiriluvchi tilning fonetik va grammatik tizimiga moslashtiriladi [6:137].

Ogahiy tarixiy asarlarida tarixan forsiy leksik qatlamga oid o'zlashmalar anchagina. Shu nuqtayi nazardan ushbu kichik tadqiqotimizda Ogahiyning "Jome al-voqeoti" va "Gulshani davlat" asarlarida uchraydigan bir qancha forsiy qatlamga oid birlklarni tahlil qildik.

**Hangom.** Payt, mavsum, zamon, fasl muddat. Eski o'zbek tiliga fors tili orqali kirib kelgan o'zlashmalardan biri. Hozirgi o'zbek adabiy tili lug'atida nofaol qatlam sifatida yashab kelmoqda.

## OGAHIY ASARLARIDA FORSIY O'ZLASHMALAR

### ПЕРСИДСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ ОГАХИ

### PERSIAN BORROWINGS IN OGAHI'S WORKS

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Ogahiyning "Jome al-voqeoti sultoniy" va "Gulshani davlat" asarlaridagi forsiy o'zlashmarlar tadqiqqa tortildi. Ushbu o'zlashmalarning qo'llanilish tarixi, ma'noviy taraqqiyoti, fonetik o'zgarishari o'rganilib, misollar orqali tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar.** Leksik birliklar, leksik qatlam, eroniya tillar, o'zlashma so'z, etimologiya.

**Аннотация.** В данной статье исследуются персидские заимствования в произведениях Огахи «Джаме ал-вакиати султани» и «Гульшани давлат». На конкретных примерах изучается история употребления этих слов, а также анализируются их семантическое развитие и фонетические изменения.

**Ключевые слова.** Лексические единицы, лексический слой, иранские языки, заимствованные слова, этимология.

**Annotation.** In this article, Persian appropriations in Ogahi's works "Jome al-vaqueoti sultani" and "Gulshani Davlat" were studied. The history of use, spiritual development, and phonetic changes of these words were studied and analyzed through examples.

**Keywords.** Lexical units, lexical layer, Iranian languages, borrowed words, etymology.

Ushbu so‘z ham biz tahlil qilayotgan forsiy o‘zlashmalar qatorida Ogahiy tarixiy asarlarida keng qo‘llangan. Xususan, “Gulshani davlat”da o‘qiyimiz:

*Ma’murlar farmoni vojibilimtinon muqtazosi bila mazkur bo’lg‘on kun zamozshom **hangomidin** so‘ng otlanib, guruh-guruh shahardin chiqib, maqsad jonibig‘a jalodati tamom bila hirom ko’rguzdilar [1:135].*

هنجام [hengām] so‘zini etimologik tahlil qilar ekanmiz. Ushbu so‘z qadimgi Pahlaviy tiliga mansub ekanligini ko‘rishimiz mumkin. فرنگ فارسی معین [fārhang-e fārsi-ye Moin] lug‘atida [5:211] ushbu so‘zning quyidagi tarjimalari berilgan:

وقت [vaqt]- vaqt, زمان [zamān]- zamon; موسوم [movsum]- mavsum, فصل [fasl]- fasl.

Hangom so‘zi fors tilida “hengom” shaklida talffuz qilingan va o‘zbek tiliga o‘zlashayotgan paytda 1-bo‘g‘indagi qisqa “e” unli tovushi “a” qisqa unlisiga o‘zgarganining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

**Nigoranda.** Yozuvchi, chizuvchi, muallif. Eski o‘zbek tiliga fors tili orqali kirib kelgan o‘zlashmalardan biri. Hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘atida nofaol qatlam sifatida yashab kelmoqda. Ushbu so‘z ham biz tahlil qilayotgan forsiy o‘zlashmalar qatorida Ogahiy tarixiy asarlarida keng qo‘llangan. Xususan, “Jome al-voqeoti sultoniy” da o‘qiyimiz:

*Bu hayratafzo voqeanning **nigorandası** va bu ibratnamo qissaning gozarondasi, ya’ni qalami mushkinraqam bu sahif amsydonig‘a bu nav qadam qo‘yarkim, chun hazrati a’lo xoqoniyning Saraxsga yiborg‘an kishilar Xolnazor Bahodri va Bekmurod taqa qaytib kelib, ul toifaning fasodu isyon, tamarruduxazyonlarin taqdir qilib, amri olyi qabulidin ibo va istib’od ko’rguzgonlarin ma’ruz ettilar [1:103].*

Mazkur leksik birlikning forsiy izohli lug‘atlarda [5:122] quyidagi tarjimalari keltirilgan:

نویسنده [navisande] – yozuvchi; منشی [monši], کاتب [kāteb] – kotib, kotiba; نقاش [nayyāš] – rassom.

Shuningdek, نگارنده [negārande] so‘zini fonologik tahlil qilganimizda, ma’lum bo‘ldi-ki, ushbu so‘z fors tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashayotgan paytda talaffuzda 1-bo‘g‘indagi qisqa “e” unlisi, cho‘ziq “i” cho‘ziq unlisiga o‘zgarib, fonologik o‘zgarish yuz berganini ko‘rish mumkin.

**Ravon.** Tekis. Eski o‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida birmuncha keng qo‘llanadi va *ravonlik*, *ravonlashmoq*, *ravon(a) bo’lmoq* kabi so‘zlarning yasalishiga asos vazifasini o‘taydi [3:202]. Ushbu so‘z ham biz tahlil qilayotgan umumeroniy o‘zlashmalar qatorida Ogahiy tarixiy asarlarida keng qo‘llangan. Xususan, “Jome al-voqeoti sultoniy” da o‘qiyimiz:

*Ko’rdilarkim tavchi va qo’shchilar tevalariga suv yuklab yo’lg‘a yangi **ravon** bo’lmish ekanlar [1:13].*

Forsiy روان [ravān] so‘zining forsiy izohli lug‘atlarda quyidagi tarjimalari keltirilgan [5:100].

روندہ [ravande] – ketuvchi, ketayotib, ketayotganda;

جاری [jāri] – hozirgi, joriy;

در حال رفتن – ketish paytida, ketayotib.

Fonologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdi-ki, ushbu so‘z fors tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonida hech qanday fonetik o‘zgarishga uchramagan.

**Xurshid.** Quyosh. Eski o‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida birmuncha keng qo‘llanadi. Ushbu so‘z ham biz tahlil qilayotgan forsiy o‘zlashmalar qatorida Ogahiy tarixiy asarlarida keng qo‘llangan. Xususan, “Gulshani davlat”da o‘qiyimiz:

*Chun xurshidi jahongard chobuksuvori sipehr arsasida shioyi tiyg‘i lam’asin namudor qildi va ziyo lashkari sufufiq‘a tafsiya va ta’biya rusumin izhor etti... [1:136].*

خورشید [xoršid] so‘zini etimologik jihatdan tahlil qilarkanmiz, ma’lum bo‘ldiki ushbu so‘z qadimgi Pahlaviy tiliga mansub bo‘lib, Pahlaviy tilida *xvaršet* shaklida talaffuz qilingan. Vaqt o‘tishi bilan *xvaršet* so‘zi fonologik o‘zgarishlarga uchragan. Bundan tashqari manbalarda خورشید خورشاد [xur], خورشاد [xoršād],

Хоршид [xoršid] – ҳоршид [hur] va ҳор [huršid] kabi arxaik variantlari ham uchratish mumkin [5].

Boshqa manbalar [4:1]da keltirilishicha, hozirgi fors tilidagi ҳоршид [xoršid] o‘rta fors tilidan bo‘lib, u “Avesto”ning oltinchi misrasida yozilgan Xudo dunyoni ifloslanishdan saqlaydigan – Xudodir. Avestoda *hvarr-*, *xvan*, *ta hvara-xšaē* shakllarida kelgan. Ҳоршид [xoršid] – quyosh so‘zi ikki komponentdan iborat bo‘lib, birinchi komponent *xvar-*, *hvar* Sanskrit tilidagi *svar* so‘zi bilan o‘lchanadi. Ikkinci qism avestocha *xšaita* – “porlash” so‘zidan olingan bo‘lib, Jamshid (Eron miflarida Oltin asr podshosi, shuningdek, ba’zi rivoyatlarda ilk podshoh) nomidan kelib chiqqan va *yama-xšaita* ma’nosidagi avestoncha shakldan olingan “porloq marvarid” ma’nosida tarjima qilinadi.

### XULOSA

Ushbu tahlillardan shunday xulosa kelib chiqadi, forsiy leksik qatlamga oid birliklar eski o‘zbek adabiy tili davrida juda faol o‘zlashgan va badiiy adabiyotda keng o‘rin egallay boshlagan. Chunonchi, Ogahiy tarixiy asarlari lug‘at qatlamida ham forsiy qatlamga oid o‘zlashmalarini ko‘plab uchratish mumkin. Ularni qo‘llashda ijodkor har bir so‘zning ma’no qirralarini nozik his qilgan va ularga tarixiy asarda shu qirralardan kelib chiqqan holda qo‘srimcha ma’no yuklagan. Bunday hollar, albatta, ijodkorning yuksak did hamda o‘ta mukammal iste’dod egasi va hassosligidan darak beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy asarlari. VI jild. Tarixiy asarlardan parchalar / Nashrga tayyorlovchi G‘. Karimov – T.: 1980. – 208 b.
- Maxmudov R. Ogahiy tarixiy asarlarda umumeroni o‘zlashmalar // Academic journal in educational sciences. Issue 6/ 2021. ISSN 2181-1385. B. 96-107.
- O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II tom. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

- Риёшҳе шенаси и вараже ҳоршид ансан шенаси и фарнг «Байгани» шеде аз ачли дар ۱۴ ژوئن ۲۰۱۲ дрияфт шеде дар ۲ овт ۲۰۱۲.
- معین, محمد. فرنگ معین. در ۶ جلد. جلد ۱. – تهران، ۱۳۴۲.
- رادر، ابوالقاسم؛ وامگری زبان فارسی از عربی و بالعکس؛ اریه شده در همایش تأثیر متقابل ادبیات فارسی و عربی، تهران: آبان ۱۳۸۰.